

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI  
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA REFLEKSIV YONDASHUV**

*NamDU tayanch doktoranti,  
NamMQI katta o'qituvchisi  
J.M.Nodirov*

**Annotasiya:** Professional ta'lism, refleksiya tushunchasining mohiyati, ta'lism-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillar, professional ta'lism muassasalarida ta'lism-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ta'lism-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda refleksiv yondashuvga oid tavsiyalar keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Professional ta'lism, refleksiya, professional ta'lism muassasalarida ta'lism-tarbiya jarayoni, refleksiv yondoshuv, o'quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanadirish.

**РЕФЛЕКСИВНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЮ УЧЕБНО-  
ВОСПИТАТЕЛЬНЫМИ ПРОЦЕССАМИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

*докторант НамГУ,  
старший преподаватель NamMQI  
Нодиров Ж.М*

**Аннотация:** Широко освещены профессиональное образование, сущность понятия рефлексии, рефлексивный подход в учебно-воспитательных процессах, различные факторы, влияющие на развитие обучающихся, организация учебно-воспитательных процессов в профессиональных образовательных учреждениях, рекомендации относительно рефлексивного подхода в организации и управлении учебно-воспитательными процессами.

**Ключевые слова:** Профессиональное образование, рефлексия, учебно-воспитательный процесс в профессиональных учебных заведениях, рефлексивный подход, формирование и развитие у студентов навыков аналитического и критического мышления.

**A REFLEXIVE APPROACH TO THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF  
EDUCATIONAL PROCESSES AND PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

*doctoral student of NamSU,  
Senior Lecturer NamISI Nodirov J.M*

**Annotation:** Professional education, the essence of the concept of reflection, a reflexive approach in educational processes, various factors affecting the development of students, the organization of educational processes in professional educational institutions, recommendations on a reflexive approach in organizing and managing educational processes are widely covered.

**Key words:** Vocational education, reflection, educational process in professional educational institutions, reflexive approach, formation and development of students' skills of analytical and critical thinking.

Ma'lumki "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning uzuksizligi, uning mutlaqo yangi mazmuni umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, nufuzini oshirish, jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rniga yuksak baho berilgan. Zamonaviy ta'lim markazida shaxs turadi, unga ta'sir etuvchi, zaruriy fazilatlarni shakllantiruvchi bo'lib o'qituvchi timsoli mujassamlashgan. Barkamol, mustaqil fikrlovchi shaxs esa ijtimoiy hayotimizni farovon qiluvchi, rivojlanishni harakatlaniruvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'ladi. [2]

Professional ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, yangi pedagogik va zamonaviy axborotlar texnologiyalari bilan ta'minlash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratishga asos sifatida xizmat qilayotgan va bir qator qabul qilingan hukumat qarorlari davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga bo'lgan e'tiborning yanada ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Professional ta'lim muassasalarida refleksiv faoliyatni amalga oshirish hamda amaliy mashg'ulotlar yuzasidan innovation ta'limiy muhitni vujudga keltirish bo'yicha zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish zaruriyati o'rganilayotgan tadqiqotning dolzarbligini isbotlaydi.[1;2]

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalari asosida ularning faolligini ta'minlash, o'rganilayotgan tushunchalarga nisbatan sub'yektlarning qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda refleksiv yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o'quvchilarni tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiyani rivojlantirish uchun qulay vaziyatlar vujudga keladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish o'quvchilarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuga, uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqish shakllantirish asosida ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlarda refleksiya tushunchasi fikrlash, o'z-o'zini anglash, o'zini-o'zi nazorat qilish; o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni o'tmishga (orqaga) murojaat qilish sifatida talqin etiladi.[10;11]

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik refleksiya o'qituvchining o'zini va o'z xatti-harakatlarini ob'yektiv baholash, o'quvchilar tomonidan o'zini qanday qabul

qilinayotganligini, eng avvalo, u muloqot jarayonida kimlar bilan o'zaro ta'sirda ekanligini tushunish qobiliyati, deb keltiriladi .

Ba'zi adabiyotlarda refleksiya o'zini-o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida sub'yeqtning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi, sub'yeqtning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyati sifatida keltiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv o'quvchilarni ma'lum bir tushuncha to'g'risida tasavvur hosil qilishga, ya'ni o'rganilayotgan tushunchalarning ahamiyatini o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirish yoki o'tmishdagi munosabatlarni o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida o'z tarixiy o'tmishimizni o'rganishga qiziqish hamda tarixiy xotirani shakllantirishga xizmat qiladi.[12;13]

O'quvchilarga Vatan va vatanparvarlik, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati to'g'risida tushunchalar shakllantirishda refleksiv yondashuv o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki o'tmishga murojaat qilish, yaqin tariximizni o'rganish orqali bizgacha yashab o'tgan avlod-ajdodlarimizning o'z Vataniga, xalqiga bo'lgan mehr-muhabbati va sadoqati uchun bo'lgan munosabatlarni o'quvchilar o'rganib yaqin o'tmishda, sovet xokimiyyati yillarda xalqimiz, millatimiz boshiga qanday mash'um kulfat, tahlika solib turganini his etadi va bugungi mustaqillik kunlarining qadrini yanada chuqurroq va teranroq anglaydi.

Ta'lim-tarbiya jiarayonlarda tashkil etiladigan refleksiv ta'limiy muhit o'quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi. Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o'quvchilar o'rganilayotgan mazularning mazmun-mohiyati hamda o'tmishdagi va bugungi kundagi ahamiyatini mustaqil ravishda tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida xulosa chiqaradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, bunda xatti-harakatlarning mazmun va mohiyati, maqsadga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi faoliyatning ehtiyojini anglash mumkin bo'ladi, chunki o'zini-o'zi chuqur anglab yetish natijasida o'z o'mnini aniqlash, o'zligini isbotlash, o'zini-o'zi (harakatlarini, fe'l-atvorini) ma'qullah, o'zining ichki imkoniyatlaridan, qobiliyatidan foydalanish, o'zini-o'zi boshqarish vujudga keladi. [12;13]

Professional ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarida tashkil etiladigan refleksiv ta'limiy muhit o'quvchilarda:

- tushunchalarning mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyatini anglash;
- barcha qarashlar, urf-odatlar, an'ana, qadriyat va madaniyatni yaxlit va o'zaro bog'liqligini tushunish;
- o'z dunyoqarashini kengaytirishga yordam beruvchi voqeа va vositalarni o'rganish, bilmaganlarini o'zlashtirish;
- mavjud voqelikni qabul qilishda ochiq va keng mushohadali, sezgir va muammolarga nisbatan murosasiz bo'lish;

- har tomonlama o'ylab ko'rish asosida tahlil qilish va ob'yektiv baholash;
- yangi tushunchalarni o'rganishda ularning ahamiyatini inobatga olish, mazkur tushunchalarga bo'lgan munosabatlarning ijobjiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, taqqoslash;
- noto'g'ri tasavvurlar, xato va qiyinchiliklarni yengib o'tishga, shuningdek, yangicha dunyoqarashni shakllanishiga imkoniyatlar yaratadi.

O'quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya'ni refleksiv ta'lismi muhitda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahliliy faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ya'ni voqelikni va tushunchalarga bo'lgan munosabatlarni o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida xulosalar chiqirishga o'quvchilar uchun imkoniyat yaratib berish kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar amalga oshiriladi.

Refleksiv yondashuvning o'ziga xos jihatlaridan biri mazkur yondashuv asosida tashkil etiladigan ta'lismi muhitni o'quvchilarning tahliliy faoliyatini tashkil etish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bo'lib, mazkur jarayonda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyatini, bugungi kundagi ahamiyatini o'tmishdagi munosabatlarni o'rganish asosida o'quvchilarni tahlil qilish va ob'yektiv baholashga undash, ularning tahliliy faoliyat jarayonidagi ijodiy yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash, faolligi va ob'yektiv xulosalarini rag'batlantirish asosida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko'ra ularning dunyoqarashini rivojlantirib borishni nazarda tutadi.

Ta'lism-tarbiya jarayonlarida refleksiv ta'lismi muhit jarayonida o'quvchilarning tahliliy faoliyati samaradorligini ta'minlashda ularning faoliyatini kuzatib borish, tahliliy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va ularni refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularning faolligini ta'minlash zarur hisoblanadi.

Ta'lism-tarbiya jarayonlarda jarayonlarda refleksiv yondashuvni joriy etish asosida refleksiv ta'lismi muhitni vujudga keltirish o'quvchilarda o'tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurni shakllantirish, ularni tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiyani rivojlantirish, o'quvchilarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini yetarli darajada yoritib berish orqali ularda tarixiy xotirani shakllantirish, kelajakka ishonch tuyg'ularini vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Ta'lism-tarbiya jarayonlarida refleksiv ta'lismi muhitni shakllantirishda shunday shart-sharoitlarni yaratish zarurki, bunda o'quvchilar o'tmishni o'rganish, yaqin tariximizda milliy an'analar, urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, qadriyatlarimiz va ona tilimizga bo'lgan munosabatlarni tanqidiy anglash asosida mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetishi hamda bugungi kunda yaratilayotgan shart-sharoitlarni ob'yektiv baholash imkoniyatiga ega bo'lsin.

Bunday ta'lism-tarbiya jarayonlarining asosini refleksiv yondashuv tashkil etadi. Shunday ekan, professsional ta'lism muassasalarida ta'lism-tarbiya jarayonlarini tashkil

etishda refleksiv yondashuvni joriy etish asosida mazkur jarayonlarni samaradorligini ta'minlash mumkin.

Professional ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida, ya'ni o'quvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqamizda yashayotgan millatlarning madaniy, ma'rifiy, ma'naviy taraqqiyot ildizlari mushtarak ekanligini targ'ib qilish, diniy ekstremizm va fundamentalizmning asl mohiyatini o'quvchilarga ochib berish jarayonlariga refleksiv yondashuvni tatbiq etish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. [3;4]

O'quvchilar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning barcha jabhalarini qamrab olishi zarur.[7;9]

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv asosida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish o'quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi. Refleksiv faoliyat jarayonida o'quvchilar o'rganilayotgan tushunchalarga nisbatan o'tmishdagi va bugungi kundagi munosabatlarni o'rganadi, tahlil qiladi va ob'yektiv baholaydi, natijada ularda mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati bo'yicha mustahkam tushunchalar shakllanadi. Refleksif faoliyat ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida tashkil etiladigan refleksiv ta'limiy muhitning asosini refleksiv faoliyat tashkil etadi. Refleksiv faoliyat tahliliy fikrlashga oid faoliyat bo'lib, tahlil qilish, voqeа va hodisalarni o'zaro bog'liq holda tekshirish, ishonchli va asoslangan ma'lumotlarga asosan hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ma'lum bir voqeа va hodisalarga tegishli bo'lgan va ularning kelib chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan omillarni ikkinchi darajali hisoblanadigan va bevosita ta'sir ko'rsata olmaydigan omillardan farqlash, hodisalarni va uni komponentlarining o'zaro bog'liqligini va aloqadorligini o'rganish va tahlil qilish asosida xulosa chiqarishdan iborat.

Shunday ekan, o'quvchilar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish jarayonlarida ularning refleksiv faoliyatini tashkil etish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Professional ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga innovasiyalarni tatbiq etish, o'quvchilar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va muvofiqlashtirish samaradorligi o'quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida

ularning ichki dunyosi, tafakkuri, dunyoqarashining rivojlanishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishini, ya'ni mazkur jarayonning natijaviyligini ifodalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni tavsiya qilishimiz mumkin:

- bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi;

- ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi; - ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorligi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi sub'yektlarning shaxsiy rivojlanishi va tayyorgarligining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqlik darajasini belgilaydi;

- ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish o'quvchilarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuga, uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqish shakllantirish asosida ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

- Ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv o'quvchilarni ma'lum bir tushuncha to'g'risida tasavvur hosil qilishga, ya'ni o'rganilayotgan tushunchalarning ahamiyatini o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirish yoki o'tmishdagi munosabatlarni o'rganish, tahlil qilish va ob'yektiv baholash asosida o'z tarixiy o'tmishimizni o'rganishga qiziqish hamda tarixiy xotirani shakllantirishga xizmat qiladi.

- ta'lim-tarbiya jarayonlarida refleksiv yondashuv o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, bunda xatti-harakatlarning mazmun va mohiyati, maqsadga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi faoliyatning ehtiyojini anglash mumkin bo'ladi, chunki o'zini-o'zi chuqur anglab yetish natijasida o'z o'rnini aniqlash, o'zligini isbotlash, o'zini-o'zi (harakatlarini, fe'l-atvorini) ma'qullah, o'zining ichki imkoniyatlaridan, qobiliyatidan foydalanish, o'zini-o'zi boshqarish vujudga keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
2. “Ta'lim to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'RQ- 37.Toshkent. 2020.- B 83.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O’zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”. “2” “O’zbekiston”. NMIU, 2018.
8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug’ xalqning ishi ham ulug’, hayoti yorug’ va kelajagi farovon bo’ladi. “3” “O’zbekiston”. NMIU, 2019.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O’zbekiston, 2020.
10. Djurayev R.X., Turg’unov S.T. Ta’lim menejmenti: O’quv qo’llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
11. Turg’unov S.T., Maqsudova L.M. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Fan, 2008. – 196 b.
12. Turg’unov S.T. va boshqalar. Ta’lim muassasalarida boshqaruv. O’quv qo’llanma. T.: Fan-2008 y.
13. Декканов, К. М., Игамбердиева, Г., & Махмудов, Н. И. (2022). ПРОФИЛАКТИКА И ЛЕЧЕНИЕ РАНЕВОЙ ИНФЕКЦИИ ПРИ ОТКРЫТЫХ ПЕРЕЛОМАХ КОСТЕЙ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 388-394.
14. Махмудов, Н. И., Карабоев, М. К., Маманабиев, Ю. Т., & Игамбердиева, Г. (2022). ИНФОРМАЦИОННО-КОМПЬЮТЕРНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ ОТДЕЛА ПЕРЕЛИВАНИИ КРОВИ В ФФРНЦЭМП. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 382-387.

#### **INTERNET MANBALARI:**

13. [http://library.tuit.uz/lectures/uzb\\_rus/Uzbek\\_tilida\\_ish\\_yuritish.htm](http://library.tuit.uz/lectures/uzb_rus/Uzbek_tilida_ish_yuritish.htm).
14. <http://www.ziyonet.uz>.